QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TABIATINI MUHOFAZA QILISH

Qilichov Orifjon Alisherovich
Tayanch doktorant
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qoraqalpog`iston Respublikasining tabiatini muhofaza qilish Orol dengizining qurigan qismida o’simlik va hayvonot dunyosi tarqalishi, ularni muhofaza qilish, saqlab qolish, ko’paytirishga oid olib borilgan tadqiqot natijalari tahlil qilindi.*

Kalit so`zlar: *Tabiat, o’simlik, hayvonot dunyosi, miliy bog’,qo’riqxona, cho’l.*

Kirish. Tabiatni tarkibiy qismlar havo, suv, tog' jinslari, o‘simlik va hayvonot dunyosi orasida va tabiatdagi turli modda va energiya almashinuvi jarayonlarida, uzoq geologik davrlar mobaynida o‘ziga xos barqarorlik holati yuzaga kelgan. Tabiatdagi mana shu barqarorlik tabiiy yoki ekologik muvozanat deb ataladi. Yerning tabiati o‘ziga xos ko'rsatkich va qonuniyatlarga ega bo‘lgan turli ichki va tashqi ta'sirlarga ma'lum darajada bardosh bera oladigan murakkab funksional tizimdir. Bu tizimning tashkil etuvchilari, ya'ni tabiatning tarkibiy qismlari doimo o'zgarish va rivojlanishda bo'lgani tufayli undagi muvozanat ham dinamik holatda mavjud bo'la oladi. [3]

Tabiat jonkuyarlari atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha fidoiylik qilayotgan va uni soglomlashtirishda, tarkib topgan hududiy-ekologik muammolarning yechimini topishda ilmiy ishlar olib borgan mutaxassis olimlarning xizmatlari ham ahamiyatli. Majmuali tabiat muhofazasi va ekologiya muammolari yechimi sohasida ilmiy ishlari bilan keng jamoatchilikka tanilgan Yu. Shodimetov, A. Ergashev, P. G‘ulomov, A. Rafikov, L. Alibekov, A. Boxiyev; tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ekologik vaziyatlarni yumshatish borasida yirik ishlanmalarii poyoniga yetkazgan M. Muhammadjonov, B. Toshmuhamedov, N. Hamroev, X. Abdirov, T. Iskandarov, S. Mirzaev, A. Xonazarov, U. Pra- tov, R. Kulmatov, S. Qobulov, X. Mahsudov, B. Bahritdinov, O. Raxmatullaev, I. Nazarov, Yu. Sultonov, I. Abdug‘aniev. L. Maqsudov, S. Abdullaev, A. Eshmuhamedov va boshqalarni ko’rsatib o‘tish joiz. O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va uning ilmiy tekshirish institutlari mutaxassislarining ham Respublikada ekologik vaziyatlarni me’yorida bo‘lishida sa’y harakatlari katta.

Mavuning dolzarbligi: Orolbo‘yi inqiroz mintaqasida joylashgan Ustyurt platosi tabiiy landshaftini va u yerdagi bioxilma-xillikni doimiy muhofazaga olish zaruriyati dolzarb masala bo‘lib, hududdagi o‘simlik va hayvonot dunyosi mamlakatimizdagi boshqa tabiiy hududlardan o‘ziga xosligi, tabiiy landshaftlarning esa nisbatan inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida kam o‘zgarganligi bilan ajralib turadi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi tabiatini muhofaza qilish bo`yicha tashkil qilingan biosfera rezervati, davlat buyurtma qo’riqxona, majmua (landshaft) buyurtma qo’riqxona hamda milliy tabiat bog’lari hududda kamayib borayotga, yo’qolib ketish arafasida turgan, noyob o’simlik va hayvonot dunyosi asrab-avaylash, ularning sonini ko’paytirish uchun xizmat qiladi.

1-jadval

Qoraqalpog’iston Respublikasi tabiatini muhofaza qilish

Biosfera rezervati			
	Nomi	**Tashkil topgan yili**	**Maydoni (gektar)**
1	Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati	2011	68 717,8
Davlat buyurtma qo`riqxonasi			

1	“Sudoche” davlat ornitologik buyurtma qo`riqxonasi	1991	50 000
Majmua (Landshaft) buyurtma qo`riqxonasi			
1	“Saygachiy” majmua (Landshaft) buyurtma qo`riqxonasi	1191	628 300
Milliy tabiat bog’i			
1	Janubiy Ustyurt milliy tabiat bog’i	2020	1 447 143

Izoh: jadval O’zbekiston Milliy atlasi I tom ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O’zbekistonda 1980-yillarda 13 ta qo’riqxona mavjud bo’lgan bo’lsa,[1] bu yillar mobaynida ba’zilari tugatilib, yangidan tashkil qilinganlarini ham ko’rishimiz mumkin.

Ustyurt o`simlikari haqida tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri M.G. Popov ishlarida ko`rishimiz mumkin.[4]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi qarori bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani hududida davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida umumiy maydoni 1 million 447 ming 143 gektar bo‘lgan “Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog‘i tashkil qilindi.

Muhokama va natijalar: “Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog‘i tashkil qilinishi hududda o’simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish, ko`payishi uchun imkon yaratildi. Bu hudud yovvoyi hayvonlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan noyob turlar uchun xavfsiz makon hisoblanadi. Hozirgi kunda milliy tabiat bog’ida 86 tur-o’simlik, 22 tur sutemizuvchilar, qushlarning 140 dan ortiq turi, 11 tur yer bag`irlovchi, 1 tur suvda va quruqlikda yashovchilar, baliqlarning 15 turi mavjud. Quyida ba’zi hayvonot turlari haqida ma`lumotlar keltirilgan.



1-rasm. **Cho’l mushugi**



2-rasm. **Dasht agamasi**



3-rasm. **Jayron**



4-rasm. **Turkman Quloni**



5-rasm. **Sassiq popishak**



6-rasm. **Qum bo’g’ma iloni**



7-rasm **Hind asalxo’ri**



8-rasm. **Vishildoq oqqush**



9-rasm. **Qizilg`oz (Flamingo)**

Cho‘l mushugi (1-rasm) ko‘llar yaqinidagi qamishzorlarda, cho‘llarda, tog‘ etaklarida tarqalgan. Adirlarda, o‘tli va toshli yonbag‘irlarda, qoyali daralarda uchraydi. Kemiruvchilar, qushlar, kaltakesaklar, hasharotlar bilan oziqlanadi. Cho‘l mushugi uy mushugidan ancha kattaligi va rangining turg‘unligi bilan farq qiladi.

Dasht agamasi (2-rasm) turli hasharotlar, o‘rgimchaksimonlar, ko‘poyoqlilar, mayda kaltakesaklar, shuningdek ayrim o‘simliklarning guli, bargi va mevasi bilan oziqlanadi. Shu jihatdan u tabiiy muvozanatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jayron (3-rasm) noyob va kamayib ketish arafasida turgan hayvon turi hisoblanadi. Tanasining uzunligi o‘rtacha 94 sm dan 115 sm gacha bo‘lib, bo‘yi 60 sm dan 65 sm ni tashkil qiladi, og‘irligi esa taxminan 25 kg dan 30 kg gacha bo‘ladi. Urg‘ochisi shoxsiz, erkagi shoxli bo`ladi.

Qulonlar yaqin vaqtlargacha Turkmanistonning tog`oldi hududlarida, kaspiy dengizi sohillarida, Badxizda, Betpaqdala va Ustyurtda gildan tashkil topgan yerlarda keng tarqalgan edi. ular hatto Ural daryosining chap sohilidagi chalacho‘llarda va Turgay o‘lkasidagi dashtlarda ham keng tarqalganligi turli manbalarda yozib qoldirilgan. XX asrning boshlarida Balxasholdi cho‘llarida ularning 1000 boshgacha bo‘lgan podalari o‘tlab yurgan. Qulonlar juda ham chidamliligi tufayli ular to‘da-tuda bo‘lib bir-ikki marta Betpaqdala orqali Orolbo‘yiga ko‘chib o‘tar edilar [1,2]

Qulonlar (4-rasm) butunlay yo'q bo‘lib ketish arafasida turgan, lokal tarqalagan kenja tur bo‘lib, asosan tekislikdagi cho'llar va yarim cho'llar,tog' etaklarida yashaydi.Ular mustahkamlashmagan qumli joylardan chetda yuradi, boshoqli o'simliklar, shuvoq va cho'ra asosiy ozuqalari sanaladi. Qulonlarning ayg'irlari etakchiligida 4-5 urg'ochi va 3-4 yosh qulondan iborat poda hosil qiladi.

Sassiq popishaklar (5-rasm) ko‘kqarg‘asimonlar turkumiga mansub qushlar oilasi. O‘zbekistonning dasht, tog‘ va tog‘ oldi hududlarida uchraydi. Tanasi o‘rtacha 28 sm, qanotlari 13,5—15 sm, vazni 70 g gacha. Pati oqqora yo‘l-yo‘l, sarg‘ish jigarrang. Boshida toji (popugi) bor. Badbo‘y hid tarqatadi (nomi shundan olingan). Bolalarini 22-23 kun davomida hasharotlar va ularning lichinkalari bilan boqadi.

Qum bo'g'ma iloni (6-rasm) zaifga yaqin mozaik tarqalgan tur. Ustyurt platosi, Qizilqum cho'li hamda unga yondosh Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Zarafshon vodiysining hududlari, O'zbekistondan tashqarida: Qozog'iston va Turkmaniston Respublikasi hududlarida ham tarqalagan. Asosan qum sahrolardagi o'ydim-chuqur qumloqlarda yashaydi. Ba'zan sertuproq cho'llarda, taqirlarda, jarlik yon bag'irlarida va sug'orma yerlar chetida ham uchratish mumkun.

Hind asalxo`ri (7-rasm) butunlay yo'q bo'lib ketish arafasida turgan tur O’zbekistonda Janubiy Ustyurt, Sariqamish botig'i, Xorazm vohasi atroflarida tarqalgan. Hind Asalxo'ri asosan-karstdan tashkil topgan g'orlar, jarliklarga boy gipsli-shag'alli sahrolar, qiyaliklar va chink darasi, sho'rxoq yerlarda yashaydi. Oqshomda va tunda, ba'zan kunduzi faol.

O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga kiritilgan. **Vishildoq oqqush**lar (8-rasm) tumshug‘idagi qora g‘urrasi bilan boshqa turlardan ajralib turadi. Bo‘yni tana uzunligiga teng bo'lib, patlari ko‘pincha oq rangda. Asosan dengiz qirg'oqlari, tashlama suv ko'llari va suv omborlarida yashaydi. Suv o'simliklari bilan oziqlanadi, bahorda fevral-mart oylarida uchib o'tadi.

Sariqamish ko`lida yashovchi qushlardan biri flamingolar. **Flamingolar** (9-rasm) och kulrang bo'lib tug'iladi. Ular yoshi ulg'aygan sari o'zlarining mashhur yorqin pushti yoki qizil rangiga kiradilar. Buning sababi qushlar tanovul qiladigan mollyuskalardagi karotin deb nomlangan maxsus pigmentlar bilan bog'liq. Qizilg‘oz (Flamingo) ko'chmanchi va uyalovchi qush bo'lib, O’zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga va Tabiatni Muhofaza Qilish Xalqaro ittifoqi (IUCN) Qizil ro'yxatiga zaif, kamayib borayotgan tur sifatida kiritilgan. Bu qushlar botqoqli qirg'oqlari bo'lgan katta tekis, sayoz sho'r ko'llarni afzal ko'radi.

Xulosa. Qoraqalpog`iston Respublikasining tabiatni muhofaza qilishga bog`liq bo`lgan jaroyonlarni o`rganish va tahlil qilish bilan bir qatorda o`simlik va hayvonot dunyosiga ta`sir qiluvchi omilarni aniqlab, ularning yashash muhit darajasini me`yorlashtirish hamda hududning ekologik muammolarini aniqlash masalalariga jiddiy yondashish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni izchil davom ettirish. Shu nuqtai nazardan Orolning qurigan qismida va unga tutash hududlarda fauna va florani saqlab qolish yo`llarini ko`paytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.A. Rafikov. Geoekologik muammolar T.,O‘QITUVChI. 1997
2. T.A.Alimov.,A.A.Rafikov. Ekologik xatolik saboqlari. Toshkent.1991.
3. P.S.Sultonov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. Darslik. Toshkent. 2017
4. Биолого-экологические особенности кормовых растений Каракалпакского Устюрта. А. Алланиязов, К. Койбагаров. Ташкент, «Фан» УзССР. 1980, с.-71.]

URBANIZATSIYALASHGAN HUDUDLARDA TABIIY VENTILYATSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INDIKATORLAR TIZIMI

Fattoxov Ne’matullox Abdulxakim o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, Tayanch doktoranti
Muxtorova Fotimaxon Ilhomjon qizi
Farg‘onda davlat universiteti geografiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada urbanizatsiyalashgan hududlarda tabiiy ventilyatsiya samaradorligini miqdoriy va sifat jihatdan baholashning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tabiiy ventilyatsiya shahar atmosferasida havoning tabiiy almashinuvi, ifloslantiruvchi moddalarni tarqatish, issiqlikni chiqarish va mikroiqlim sharoitlarini barqarorlashtirish bilan bog‘liq murakkab geofizik-aerodinamik jarayon sifatida qaraladi. Maqolada havo almashinish koeffitsienti (ACH), shamol tezligi koeffitsienti (WVR) va havoning o‘rtacha “yoshi” (MAA) asosiy indikatorlar sifatida tizimlashtirilib, ularning hisoblash formulalari, mazmuni va baholash mezonlari yoritiladi. Shuningdek, tabiiy ventilyatsiya samaradorligiga ta’sir etuvchi shahar morfologik ko‘rsatkichlari - frontal maydon zichligi (λf), plan maydoni zichligi (λp), bino balandligi va ko‘cha kengligi nisbati (H/W), aerodinamik g‘adir-budurlik uzunligi (z_0) - bilan ventilyatsion indikatorlarning o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. GIS, CFD, shamol tunneli va IoT monitoringi kabi usullarni indikatorlar tizimi bilan integratsiyalash tabiiy ventilyatsiyaning hududiy farqlarini aniqlash imkonini beradi. Taklif etilayotgan yondashuv Farg‘ona va Marg‘ilon shaharlari sharoitida ventilyatsiya salohiyatini baholash, shamol koridorlarini ajratish va urbanistik rejalashtirish qarorlarini ilmiy asoslash uchun metodik baza sifatida qaraladi.*

Kalit so‘zlar: *urbanizatsiya, tabiiy ventilyatsiya, havo almashinuvi, ACH, WVR, MAA, shahar morfologiyasi, shamol koridori, ventilyatsiya salohiyati, GIS, CFD, Farg‘ona, Marg‘ilon.*

Kirish. Urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi shahar hududlarida atmosfera va yer yuzasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni kuchaytirmoqda. Shaharlarning kengayishi, aholi zichligining ortishi, transport va qurilish faoliyatining ko‘payishi natijasida tabiiy havo almashinuvi uchun mavjud ochiq makonlar qisqarishi mumkin. Bunday sharoitda atmosfera ifloslantiruvchilarining tarqalishi faqat emissiya miqdoriga emas, balki shaharning